ulug‘ fazilatlarga urg‘u beriladi. Masalan, Yusufning go‘zalligi, Sulaymonning adolati, Ayyubning sabri va boshqalar: “Yusufning husni bor, Ayyubning sabri bor”.

3. Afsonaviy shaxs nomlari. Xalq og‘zaki ijodida mifologik obrazlarning ham o‘rni katta hisoblanadi. Ular faqatgina dostonlarda muhim ahamiyat kasb etib qolmay maqollarda ham muhim. Afsonaviy qahramonlar ko‘proq sevgi, jasorat, fidoyilik, mehnatsevarlik, tantilik kabi fazilatlarni aks ettiradi. Masalan, Rustamning va Go‘ro‘g‘lining qahramonligi, kuchi, vazir Ayozning aql-zakovati, Afandining topqirligi, Layli va Majnun, Tohir-u Zuhraning muhabbati ko‘p maqollarda uchraydi: “Majnun bo‘lmagan Layliga yetmas”.

4. Oddiy xalqona nomlarning qo‘llanishi. Maqollarda juda ko‘p ismlar uchraydi. Lekin ularning alohida ma’no ko‘lami mavjud emas. Ular maqollarda shunchaki umumlashgan inson tipi vazifasini bajaradi. Masalan: “Ali aytganini qiladi, Vali qilganini aytadi”. Bu maqolda ham kundalik ijtimoiy hayot yoritilgan, ya’ni Ali amaliy inson, u barcha ishlarini o‘z o‘rnida bajaradi, Vali maqtanchoq ekanligi ko‘rinadi. Maqolda bir tovush bilan farq qiluvchi Ali vaVali ismlarining qo‘llanilishi tovush uyg‘unligini, ritm va qofiyani ta’minlagan.

**Tahlil va natijalar.** Maqollarni tahlil qilish davomida kuzatilganidek, shaxs nomlari bir necha vazifalarni bajargan. Semantik vazifasi orqali nomlarda mujassamlashgan fazilatlar, xarakteri va tarixiy obrazligi ko‘rsatilgan. Yusuf – go‘zallik, Ayyub sabr timsoli bo‘lib xizmat qilgan. Bundan tashqari, odatiy ismlar ham ritmik ohangdoshlik hosil qilgan bu esa maqollarning eslab qolinishini va tildan tilga ko‘chishini osonlashtirgan. Masalan, yuqorida ta’kidlaganimizdek, Ali bilan Vali va boshqalar. Ahmad, Hasan kabi xalq o‘rtasida keng qo‘llanadigan ismlar oson tildan tilga ko‘chgan.

Lingvokulturologik jihatdan esa maqollar o‘zbek xalqining diniy qarashlarini, tarixiy xotiralarini, jamiyatdagi axloqiy me’yorlarni ham mujassamlashtirgan. Bu esa insonlarni o‘z-o‘zidan sabrli va adolatli bo‘lishga, mehnat qilishga, sabr-sadoqatga, umuman, turmushning barcha jihatlarini qamrab olgan “oltin so‘zlar”ga amal qilishga chorlagan. “Otalar so‘zi” sanalmish maqollarimiz bunday ma’no ko‘lamiga ega bo‘lishi uchun uzoq yillar semantik jihatdan mazmunliroq va hayotda o‘rinliroq bo‘lib boravergan. Asrlar davomida yoshi ulug‘ insonlarning pand-nasihatlari vositasida yoshlar qalbiga singdirilgan. Shunday ekan, o‘zbek xalq maqollarida qo‘llangan shaxs nomlari ma’noni chuqurroq anglash va tarixdan oz bo‘lsa-da xabardor bo‘lishga yordam bergan.

**Xulosa va takliflar.** Ushbu maqolani yozish davomida o‘tkazilgan izlanishlar jarayonida o‘zbek xalq maqollarida shaxs nomlari keng qo‘llanishiga ishonch hosil qilindi. Shaxs nomlari shunchaki qo‘llangan emas, ularda xalq tafakkuri va milliy qadriyatlarining muhim ifoda vositasi bo‘lib xizmat qilayotganini hamda muhim ifoda va nutqiy vosita ekanligini ko‘rsatdi. Shaxs nomlari tarixiy, diniy, afsonaviy va oddiy xalq ismlari shaklida qo‘llanishi aniqlandi. Bu shaxs nomlarining har bir turi o‘ziga xos vazifani bajarishining dalilidir. Shuning uchun, unutmasligimiz kerakki, maqollar nafaqat pandnoma, nasihatnoma, balki asrlar osha tariximizdan, milliyligimizdan sado berguvchi xalqimiz zakovatining o‘lmas va o‘chmas yodgorliklaridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

[1]. Вамбери Г. Очерки Средней Азии. М., 1868.
[2]. T.Mirzayev, A.Musoqulov, B,Sarimsoqov. O‘zbek xalq maqollari. T., 2005.
[3]. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov. Hikmatnoma. T., 1990.
[4]. В.Виноградов. Лексикология и фразеология русского языка. Москва, “Наука”, 1977.
[5]. W.Mieder. Proverbs: A Handbook. Westport: Greenwood Press, 2004.
[6]. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildlik, T., 2022.
[7]. Permyakov G.L. Strukturaviy paremiologiya asoslari. M., “Nauka”, 1988 (Sharq folklori va mifologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar).

**Shoira Usmanova (filologiya fanlari doktori, Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti professori;**
**E-mail: usmanovashoira89@gmail.com; Orcid: 0009-0005-2608-4577),**
**Shamsiyeva Shoxistaxon (PhD, Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti dotsenti;**
**E-mail: shoxistaxon.shamsiyeva@gmail.com; Orcid: 0000-0001-5734-9957)**

## LISONIY ASSOTSIATSIYALARDA ERKAK VA AYOL HAQIDAGI TASAVVURLARNING AKS ETISHI

***Annotatsiya.*** *Bugungi kunda dunyo tilshunosligida “insonning tashqi olam haqidagi bilim va tasavvurlarining tilda voqelanishi masalasi”ning tadqiqiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, inson tasavvurlarini tilda aks ettiruvchi lisoniy assotsiatsiyalar mohiyatini ochib berish, assotsiatsiyalarni yuzaga*

*kelishishidagi lingvistik va ekstralingvistik omillarni aniqlash, til va tafakkur, til va jamiyat hamda til va madaniyat munosabatlaridagi inson omilining o'rnini belgilash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.*

***Kalit so'zlar**: ekstralingvistik omillar, geteronimlar, avtostereotip, geterostereotip, ayollik, erkaklik, asotsiativ maydon.*

**Усманова Шоира (доктор филологических наук, профессор Ташкентского государственного университета востоковедения; E-mail: usmanovashoira89@gmail.com; Orcid:0009-0005-2608-4577),**
**Шамсиева Шохистахон (PhD, доцент Ташкентского государственного университета востоковедения; E-mail: shoxistaxon.shamsiyeva@gmail.com; Orcid: 0000-0001-5734-9957)**

## ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ АССОЦИАЦИИ КАК ОТРАЖЕНИЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О МУЖЧИНЕ И ЖЕНЩИНЕ

***Аннотация.** В современном мировом языкознании особое внимание уделяется исследованию проблемы «реализации в языке знаний и представлений человека о внешнем мире». В частности, к числу актуальных задач относится раскрытие сущности лингвистических ассоциаций, отражающих человеческие представления, выявление лингвистических и экстралингвистических факторов их формирования, а также определение роли человеческого фактора во взаимоотношениях языка и мышления, языка и общества, языка и культуры.*

***Ключевые слова:** экстралингвистические факторы, гетеронимы, автостереотип, гетеростереотип, женственность, мужественность, ассоциативное поле.*

**Shoira Usmanova (Doctor of Philological Sciences, Professor, Director Center for Linguistics, Tashkent State University of Oriental Studies; E-mail: ushoira@mail.ru; Orcid:0009-0005-2608-4577),**
**Shamsieva Shokhistakhon (PhD, Associate Professor, Tashkent State University of Oriental Studies; shohistaxon81@mail.ru; Orcid: 0000-0001-5734-9957)**

## LINGUISTIC ASSOCIATIONS AS A REFLECTION OF PERCEPTIONS OF MEN AND WOMEN

***Annotation**. In modern linguistics, special attention is paid to the study of the issue of "the representation in language of human knowledge and perceptions of the external world." In particular, revealing the essence of linguistic associations that reflect human perceptions, identifying the linguistic and extralinguistic factors underlying their formation, and determining the role of the human factor in the relationships between language and thought, language and society, as well as language and culture are considered among the most relevant tasks.*

***Keywords**: extralinguistic factors, heteronyms, autostereotype, heterostereotype, femininity, masculinity, associative field.*

**Kirish (Introduction).** Turli tillar doirasida assotsiatsiyalar tadqiqiga bag'ishlangan qator izlanishlar olib borildi [1], ko'plab tillarning assotsiativ lug'atlari yaratildi [2].

O'zbek tilshunosligida ham keyingi yillarda til birliklarining assotsiativlik nuqtayi nazardan o'rganishga qaratilgan salmoqli tadqiqot ishlari amalga oshirilib, ularda o'zbek assotsiativ tilshunosligining bugungi kundagi dolzarb muammolari belgilab berildi [3]. Shunday bo'lsa-da, tilshunosligimizda hali o'rganilishi lozim bo'lgan masalalar mavjud. Ana shunday masalalardan biri gender stereotiplar bo'lib, ularning etnomadaniy xususiyatlarini yoritish, ularning voqelanishidagi lisoniy va nolisoniy omillarni aniqlash, shuningdek, gender stereotiplarning etalon sifatida qo'llanishi kabi masalalarni tadqiq etish nafaqat zamonaviy tilshunoslik, balki madaniyatlararo muloqotda ham samarali natijalarga olib keladi. Shu bilan birga, erkak va ayol haqidagi tasavvurlarning assotsiativ tajribalar orqali ochib berish jamiyatdagi gender tenglik darajasini aniqlashga, jamiyat a'zolarining erkak va ayol xususidagi fikrlarini umumlashtirishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, "tilshunoslikda keyingi yillarda lison ortida turgan ong, unda tashqi olam obrazining hosil bo'lishi, olam manzarasining turli madaniyatlardagi qiyofasi, inson tasavvurlari va lisoniy xotirasini amaliy tajribalar orqali tekshirishda assotsiativ tajriba metodidan samarali foydalanilmoqda" [4].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Assotsiativ tajriba inson ongida so'z ortida yashiringan ma'lum bir umumlashgan shakllarni aniqlashga yordam beradi. Y.I.Goroshkoga ko'ra, assotsiativ tajriba "bu shaxsning oldingi tajribasida shakllangan assotsiatsiyalarni aniqlashga qaratilgan usuldir"[5;12-b].

D. Lutfullayevaning fikricha, "assotsiativ tajriba metodi biror-bir obyekt bo'yicha til egalarida hosil bo'lgan assotsiatsiyalarni aniqlashda, ushbu obyektning kishilar ongida hosil bo'lgan obraz-qiyofasiga tavsif berishda ham muhim ahamiyatga ega". Shuningdek, olima "assotsiativ tajriba metodi yordamida inson lisoniy ongining funksionallashuvi xususiyatlarini hamda nutqiy jumlalar hosil qilishning, odatda, til egalari tomonidan anglanmaydigan, hatto boshqa tadqiq metodlari asosida ham aniqlab bo'lmaydigan usullariga baho berish mumkin"ligini alohida ta'kidlaydi (6).

N.V.Ufimseva assotsiativ tajribaning til materiallarini o‘rganishda nihoyatda muhimligini alohida uqtirib, birinchi navbatda, assotsiatsiyalar tilning lug‘at tarkibi semantik strukturasiga (aniqrog‘i, til egalari lug‘at boyligi bilan) muvofiq kelishini qayd etadi. Olimaning fikricha, assotsiativ reaksiyalarni o‘rganishning ikkinchi afzalligi ularning so‘zning lisoniy sintagmatik bog‘lanishlari bilan shartlanganligidir. Javob reaksiyalari asosida so‘zlarning nutqda birga qo‘llanishi, nutqiy sintagmatika haqida, bundan tashqari, erkin assotsiativ tajribada so‘zlarning taqsimlanish qonuniyatlari va nutq oqimida nihoyatda yaqin holatda bo‘lishi ehtimoli xususida fikr yuritish mumkin. Assotsiativ reaksiyalarni o‘rganishning uchinchi afzalligi bu materiallarga muayyan madaniyat va til uchun xarakterli bo‘lgan ong obrazining “assotsiativ profili” sifatida qarash mumkinligidir. Ular muayyan etnos egallagan aqliy va hissiy bilimlarni birlashtiradi” [6].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Assotsiativ tajriba orqali so‘zlarning assotsiativ ma’nolarini, qanday so‘zlar bilan sintagmatik munosabatga kirishuvini aniqlash mumkin. Shu bilan birga, assotsiativ tajriba metodi yordamida til egalarining ongi xususiyatlari, xotirasini tekshirish imkoniyati mavjud. Chunki tajriba jarayonida kishilarning nafaqat til bilimi yuzaga chiqadi, balki tashqi olamdagi narsa-predmetlar, yuz bergan voqea-hodisalarning idrok etilgan, anglangan va ongda aks etgan obrazlari tasavvurida tiklanib, turli assotsiatsiyalarni uyg‘otadi. Shu jihatdan, assotsiativ tajriba metodi inson ongining funksiyalashuvi jarayonini o‘rganishda eng ishonchli va samarali metod sanaladi [4;13-b.].

To‘plangan ma’lumotlar jadvalga solinadi. Agar ma’lumot ko‘p bo‘lmasa, u qo‘lda yoziladi. Keyin olingan ma’lumotlar va uning mazmuniy tahlili, matematik-statistik bahosi aniqlashtiriladi. Buning natijasida tadqiqotchi tildan foydalanish va til egalarining ma’lum ijtimoiy xususiyatlari o‘rtasidagi aloqadorlikni aniqlashga muvaffaq bo‘ladi [9;75-b.].

Assotsiativ tajriba uchun avvalo, gender stereotiplarning shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-lisoniy omillarni aniqlab olish lozim. V.P.Timofeyev ijtimoiy-lisoniy omillarni 3 ta asosiy: jismoniy, psixologik va ijtimoiy turga ajratadi [10;179-b.]. T.I.Erofeyeva “turli ijtimoiy guruhlar nutqini: shaxsning tug‘ilgan joyi, yoshi, ma’lumoti, kasbi, mehnat faoliyati, jinsi va temperamenti” [11] bo‘yicha qatlamlardan tarkib topishini qayd etadi.

Xitoylik tadqiqotchi Van Min xitoy tili va rus tili sohiblarining lisoniy ongida gender strereotiplarning ifodalanishini jins, yosh va ma’lumot (ta’lim) omillariga ko‘ra tahlil qilgan [12]. Biz ham o‘z tadqiqotimizda ijtimoiy guruhlarning jinsi, yoshi va ma’lumoti (ta’limi) kabi mezonlarni hisobga olgan holda assotsiativ eksperiment o‘tkazishni ma’qul topdik.

**Gender mezoni.** Ma’lumki, gender inson hayotining barcha sohalarida, jumladan, til sohasida ham mavjud bo‘lgan mezonlardan biridir. E.I.Goroshkoning fikricha, gender erkak va ayol rollaridagi, ularning aqliy va hissiy xususiyatlari hamda nutqiy muomalasidagi farqlarni jamiyatning uzluksiz jarayoni sifatida tushunish markaziy masala hisoblanadi. Olima assotsiativ eksperimentga gender mezonini kiritish erkak va ayol lisoniy ongining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqroq tasvirlashga yordam berishini alohida ta’kidlaydi [13;23-b.]. Zero, erkak va ayol oppozitsiyasi til nuqtayi nazaridan ham qarama-qarshilikni yuzaga chiqarib, ularni tadqiq etish, bir tomondan murakkab, ikkinchi tomondan, qiziqarli natijalar beradi.

**Yosh mezoni**. “Yosh bir tomondan, shaxsning ontogenetik jihatdan rivojlanishini (“biologik yosh” – Sh.Sh.) ifodalovchi individual xususiyatidir. Ikkinchi tomondan, yosh jamiyatning mehnat taqsimoti va ijtimoiy tuzilmasidan kelib chiqqan me’yoriy va rol xususiyatlari majmuasidir. Bu ma’lum bir xronologik yoshdagi (“ijtimoiy yosh”) odamlar uchun turli ijtimoiy faoliyat shakllarining majburiyatini belgilaydi” [14].

Ko‘rinadiki, yosh omili murakkab jarayon hisoblanadi. Shu bois turli mamlakatlar gerontologiyasida yosh darajasining taqsimlanishi ham har xil beriladi. Biz tadqiqotimiz doir–sida o‘tkazilgan tajribalarda ishtirok etadigan respondentlarni ikki yosh guruhiga ajratdik: 1) 17–35; 2) 36–60.

Kishi 17–35 yosh orasida, odatda, o‘zi qiziqqan soha bo‘yicha tahsil olishni boshlaydi. Binobarin, oliy ta’lim muassasi yoki kasb-hunar o‘quv yurtlariga kiradi. Keyin ish boshlaydi, ijtimoiy rollarini shakllantiradi va gender stereotiplarini qabul qiladi.

36 dan 60 yoshgacha bo‘lgan davrda kishilar jamiyatning barcha sohalarining rivojlanishida asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Bu yoshdagi insonlar ijtimoiy faoliyatlarda faol ishtirok etadi va jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, bu davrda kishining dunyoqarashi allaqachon shakllangan bo‘lib, uning qarashlari osonlikcha o‘zgarmaydi. Natijada, kattaroq yosh guruhining qarashlari, jumladan, ularning erkaklik va ayollik haqidagi fikrlari ancha konservativ bo‘ladi [13;48-49-b.].

**Ma’lumot (ta’lim) mezoni.** So‘rovnomalarda, odatda, shaxsning ma’lumoti, ya’ni ta’limi ikki darajada aniqlanadi: oliy va o‘rta ta’lim. Ma’lumki, kognitiv darajada va shaxsning lisoniy ongida ta’lim muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, ta’lim gender stereotiplarining shakllanishiga aniq ta’sir ko‘rsatadi. Binoba-

rin, qator tadqiqotchilar ta'limning gender stereotiplari shakllanishidagi ta'sirini alohida ta'kidlashgan. Xususan, P Trudgill ta'lim darajasi nutqdagi gender farqlariga bog'liq, deb hisoblagan [15;179–195-b.].

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Tadqiqotimiz doirasidagi o'tkazilgan assotsiativ tajribasida o'zbek tili sohiblariga "Ayol kim?", "Erkak kim?", "Ayol qanday?", "Erkak qanday?" kabi savollarni berib, ularga javob olish orqali "erkak" va "ayol" assotsiativ maydonini shakllantirib, uning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berish, qolaversa, o'zbek lisoniy jamoasi ongida gender stereotiplarning qanday shakl-langani, gender rollar qanday taqsimlangani, umuman, o'zbek tili sohiblarining erkak va ayol haqidagi ong osti fikrlarini aniqlash maqsadida o'tkazildi. Shuningdek, javoblar tahlilida erkaklar va ayollar tomonidan qo'llanilgan muayyan strategiyalardagi o'ziga xos farqlarni aniqlashga harakat qildik.

Assotsiativ tajribaga O'zbekiston Respublikasining Toshkent shahridan 100 nafar respondent jalb etildi. Gender taqsimotiga ko'ra 50 nafar erkak va 50 nafar ayol, yosh taqsimotiga ko'ra esa 50 nafar 17–35 yoshli, 50 nafar 36–60 yoshli respondent jarayonda ishtirok etdi.

Quyida tajriba natijalari asosida "erkak" va "ayol" assotsiativ maydonini tahlil qilamiz. Assotsiativ maydon birliklari besh va undan ortiq takroriy kelgan yuqori chastotali birliklarni tashkil etuvchi maydonning yadro qismi, ikki va undan ortiq kelgan birliklarni yaqin chegara qismi hamda yakka tartibda kelgan birliklarni esa uzoq chegara qismlariga ajratgan holda tahlil qilamiz.

*Erkak* assotsiativ maydonining yadrosida "Ota" (12 ta javob) reaksiyasi markaziy o'rin egallagan. *Erkak* assotsiativ maydonining yadrosi markazini xitoy va rus informantlarining reaksiyalari bilan solishtirganimizda uning "xitoy tili sohiblarining javoblarida "Tayanch" (10 ta javob), rus informantlarining javoblarida esa "Odam" (16 ta javob)" [12;67-b.] so'zlarining yetakchilik qilganini ko'rish mumkin. Shuningdek, *erkak* assotsiativ maydonining yadrosi markazida "Ota"dan keyin "Himoyachi" (10 ta javob), "Oila boshi" (9 ta javob), "Odam" (9 ta javob) hamda "Tayanch" (8 ta javob) reaksiyalari kelganini kuzatish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, xitoy va rus respondentlarining javoblarida "Ota" reaksiyasi *erkak* assotsiativ maydonining hatto yaqin va uzoq chegaralarda ham uchramaydi. Bu esa o'zbek gender avtostereotipida "Ota" roliga alohida e'tibor berilishiga va bu rolning oilada kuchli ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

*Ayol* assotsiativ maydonining yadrosida "Ona" 14 ta javob reaksiyasi bilan markaziy o'rin egallagan. Mazkur assotsiativ maydonni xitoy va rus respondentlarining javoblari bilan qiyoslaganimizda "xitoy informantlarining javobida "Ona" reaksiyasining 29 ta (yadro qismining birinchi o'rnida), rus informantlarining javobida esa 10 ta (yadro qismining ikkinchi o'rnida)" [12;59-b.] ekanligini kuzatish mumkin.

Ko'rinadiki, o'zbek, xitoy va rus respondentlarining gender avtostereotipida ayol "ona" roli yetakchilik qilib, u har uchchala madaniyatda ham umumiy belgiga ega. *Ayol* assotsiativ maydonining yadrosi markazida "Ona"dan keyin "Mehr" (13 ta javob) reaksiyasi keladi. Rus informantlarining javoblarida birinchi o'rinda "Odam" (20 ta), xitoy informantlarining javoblarida ikkinchi o'rinda "Xotin" (5 ta javob) reaksiyasi keladi. Demak, o'zbek gender avtostereotipida ayol deganda, xitoy va rus, qolaversa, boshqa madaniyatlarda uchramaydigan "Mehr" tushunchasi assotsiatsiyalanadi.

Ayon bo'ldiki, o'zbek gender avtostereotipida *erkak* assotsiativ maydonining yadrosida "Ota", *ayol* assotsiativ maydonining yadrosida esa "Ona" reaksiyalari markaziy o'rin egallaydi. Bu esa o'zbek madaniyatida ota-onaga katta e'tibor qaratilishining belgisi bo'lib, uni bir qancha omillar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, o'zbek an'analarida oila muqaddas bo'lib, u jamiyatning eng muhim tayanchi hisoblanadi. Binobarin, ota-ona farzandlarni voyaga yetkazadi, unga ta'lim-tarbiya beradi, uni uyli-joyli qiladi. Shu sababli ota-onani hurmat qilish nafaqat farzandning burchi, balki milliy qadriyat sanaladi. Ikkinchidan, kattalarni hurmat qilish o'zbek an'analari va urf-odatlarining asosiy tamoyili bo'lib, ota-onaga eng muqaddas, eng ulug' zot sifatida qaraladi. Uchinchidan, dinning ta'siri ham muhim omil bo'lib, Islomda ota-onani hurmat qilish, ularni xizmatida bo'lish farz hisoblanadi. To'rtinchidan, o'zbek jamiyatida tarixan oilalarning katta va serfarzand bo'lishiga alohida e'tibor qaratilgan. Oila a'zolarining birga yashashi, bir-birini qo'llab-quvvatlashi muhim bo'lgan.

*Erkaklik* assotsiativ maydonining yadrosida "Mard" (24 ta javob) reaksiyasi birinchi o'rinda, "Kuchli" (21 ta javob) reaksiyasi esa ikkinchi o'rinda kelgan. Bu stimulga "xitoy informantlari birinchi o'rinda "Mas'uliyatli" (10 ta javob), ikkinchi o'rinda "Kuchli" (8 ta javob), rus informantlari birinchi o'rinda "Kuchli" (10 ta javob), ikkinchi o'rinda "Mas'uliyatli" (6 ta javob)" [12;70-b.] deb reaksiya bildirishgan.

Ayon bo'ladiki, o'zbek gender avtostereotipi *erkaklik* deganda "Mard", xitoy gender avtostereotipi "Mas'uliyatli", rus gender avtostereotipi esa "Kuchli" insonni tasavvur qiladi. Odatda, an'anaviy o'zbek madaniyatida erkaklik sifati kuchli bo'lishdan ko'ra, bir so'zli bo'lish, oila sha'ni va vatanni himoya qilish, mas'uliyatni his qilish kabilarni o'z ichiga oladi. Tarixdan urushlar, og'ir sharoitlar, umuman, qiyin zamon-

larda erkakning qadri uning jasorati va mardligi bilan baholangan. Shu bois "erkak"dan kora ko'proq "mard yigit", "mard o'g'lon" ifodalarini qo'llash aksiologik jihatdan yuqori baho hisoblanadi. Demak, o'zbek xalqining tasavvurida erkak odamning eng asosiy fazilati mardlik bo'lib, u ishonch va matonatga tayanadi.

*Ayollik* assotsiativ maydoni tahlil qilinganda uning yadrosida "Mehribon" (13 ta javob) reaksiyasi yetakchilik qilganini, shuningdek, ikkinchi o'rinda "Ojiza" reaksiyasi kelganini kuzatish mumkin. Bu savolga xitoy va rus informantlari birinchi galda "Chiroyli" deb javob berishgan. Keyingi o'rinlarda esa "Mehribon" va "Nozik" deb reaksiya bildirishgan. O'zbek tilida esa "Chiroyli" va "Nozik" reaksiyalari mazkur assotsiativ maydonning yaqin chegara qismida joylashgan.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Ko'rinadiki, o'zbek aksiologik tasavvurida ayollik "mehribonlik" fazilati orqali eng ko'p baholangan. Buning sababini o'zbek oilasida ayolga, asosan, mehr-muhabbat markazi sifatida qarash bilan tushuntirsh mumkin. Til tizimida shaxsga gender nuqtayi nazaridan aksiologik munosabat bildirishda erkak va ayollarga nisbatan farqli til birliklari qo'llaniladi. Erkaklarga nisbatan ishlatiladigan til birliklari aksariyat hollarda neytral yoki ijobiy ma'noga ega bo'ladi. Ayollarga nisbatan qo'llaniladigan til birliklarida ko'pincha salbiy, kamsituvchi bahosi kuchli bo'ladi.

Erkaklik assotsiativ maydonining yadro markazida "mardlik" reaksiyasining kelishi kuzatildi. An'anaviy o'zbek madaniyatida erkaklik sifati kuchli bo'lishdan ko'ra, bir so'zli bo'lish, oila sha'ni va vatanni himoya qilish, mas'uliyatni his qilish kabilarni o'z ichiga oladi. Shu bois o'zbek lingvomadaniyatida "erkak"dan ko'ra ko'proq "mard yigit", "mard o'g'lon" ifodalarini qo'llash aksiologik jihatdan yuqori baho hisoblanadi.

O'zbek aksiologik tasavvurida ayollik "mehribonlik" fazilati orqali eng ko'p baholangan. Buning sababini o'zbek oilasida ayolga, asosan, mehr-muhabbat markazi sifatida qarash bilan tushuntirsh mumkin. Shuningdek, o'zbek gender avtostereotipi tomonidan ayollikni "ojizalik" sifati bilan ham keng talqin qilingani kuzatildi. Xitoy va rus gender avtostereotiplarining javoblarida esa "Ojiza" reaksiyasi umuman uchramagan. Buning sababi o'zbek jamiyatining patriarxal an'analarga asoslangani bilan bog'liq.

Erkaklik va ayollik birinchi navbatda inson tafakkuridagi universal tushuncha bo'lib, u har qanday madaniyatda konsept sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, erkaklik va ayollik konseptlari har bir madaniyatning o'ziga xos tafakkur tarzini bildirib, tilda ham o'ziga xos konnotatsiyalar vositasida ifodalanadi. Ularni o'rganish orqali gender stereotiplarning milliy xususiyatlari ochib beriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

(1). Кузнецова Л.Э. Любовь как лингвокультурный эмоциональный концепт: ассоциативный и гендерный аспекты: Дисс. …канд. филол. нук. Краснодар, 2005/http://31f.ru/ dissertation/page; Боргоякова А.П. Национально-культурная специфика языкового сознания хакасов, русских и англичан (на материале ядра язы-кового сознания). Дисс. ...канд. филол. наук, М., 2002.http://31f.ru/ dissertation/page, 1,133-dissertaciyanacional-no-kulturnaya-specifika-yazykovogo-soznaniya-xakasov-russkix-i-anglichan.html

(2). Kurcz I. Polski normy powczechności skojarzeń swobodnych na 100 słów z listy KentRosanoff"a. Studia psychologychne. Warszawa-WroclawKraków, 1967; Postman L., Keppel G. (eds.). Norms of Word Association. New York and London, Academic Press, 1970, 943 p.; Kiss G.R., Armstrong C., Milroy R. The Associative Thesaurus of English. Edinburgh: Univ. of Edinb., MRC Speech and Communication Unit, 1972. – 1539 p.; Maršalová L. Slovnoasociačne normy. Bratislava, 1972; Титова Л.Н. Киргизско-русский ассоциативный словарь. Фрунзе, "Мектеп", 1975, 95 с.; Цітова А.І. Асацыятыўны слоўнік беларускай мовы. Мінск, 1981; Български норми на словесни ассоциации (Под общата ред. Е.Герганова). София, "Наука и изкуство", 1984, 272 с.; Ульянов Ю.Е. Латышско-русский ассоциативный словарь. Рига, "Зинантне", 1988, 187 с; Бутенко Н.П. Словник асощативних норм украшською мови. Львlв, "Вища школа", 1989, 326 с; Дмитрюк Н.В. Казахско-русский ассоциативный словарь //РАН. Ин-т языкознания, университет "Мирас", Шымкент; М., 1998, 245 с; Русский ассоциативный словарь / Сост. Ю.Н.Караулов, Ю.А.Сорокин, Е.Ф.Тарасов, Н.В.Уфимцева, Г.А.Черкасова. Т. 1–2, М., 1994–1998. URL:http://www.tesaurus.ru/dict/dict.php; Русский ассоциативный словарь. В 2 т;Ю.Н.Караулов, Г.А. Черкасова, Н.В.Уфимцева, Ю.А.Сорокин, Е.Ф.Тарасов. М., "Астрель"; АСТ, 2002, т. 1. От стимула к реакции. 784 с; Т. 2. От реакции к стимулу. 992 с; Боргоякова А.П. Хакасский ассоциативный словарь (рукопись). 2002, 235 с; Дебренн М., Романенко А.А. Французский ассоциативный словарь. В 2 т. Новосиб. гос. ун-т. Новосибирск, 2010,URL:http:// dic-taverf.nsu.ru/dict.; Заморщикова Л.С., Романенко А.А. Ассоциативный словарь якутского языка // http: // adictsakha.nsu.ru.

(3). Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. Тошкент, "Meriyus", 2017, 140-бет; Lutfullayeva D., Karimova F., Saydaliyeva M. O'zbek tilining assotsiativ tadqiqi. Toshkent, "Bookmany print", 2024, 152-bet; Tajiboyev B. O'zbek tilida so'zning assotsiativ ma'no strukturasi. Toshkent, "Mahalla va oila", 2021, 108-bet; Ортиқова Ҳ. Бадиий матннинг ассоциатив тадқиқи (Э.Воҳидов ва А.Орипов шеърлари мисолида). Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс., Тошкент, 2022, 136-бет; Rahmonov H. Omon Matjon she'riy matnlarining assotsiativ strukturasi. Filol. fan. bo'yicha fals. fan. d-ri. (PhD) ... diss. avtoref., Qo'qon, 2023, 57-bet.

(4). Lutfullayeva D., Karimova F., Saydaliyeva M. O‘zbek tilining assotsiativ tadqiqi. Toshkent, “Bookmany print”, 2024, 12-bet.
(5). Горошко Е.И. Интегративная модель свободного ассоциативного эксперимента. Харьков, Москва, Ра-Каравелла, 2001, с. 138.
(6). Славянский ассоциативный словарь: русский, белорусский, болгарский, украинский. Под ред. Н. В.Уфимцевой, Г.А.Черкасовой, Ю.Н.Караулова, Е.Ф.Тарасова. М., 2004, с. 4.
(7). Славянский ассоциативный словарь: русский, белорусский, болгарский, украинский. Под ред. Н. В.Уфимцевой, Г.А.Черкасовой, Ю.Н.Караулова, Е.Ф.Тарасова. М., 2004, с. 5.
(8). Lutfullayeva D., Karimova F., Saydaliyeva M. O‘zbek tilining assotsiativ tadqiqi. Toshkent, “Bookmany print”, 2024, 13-bet.
(9). Usmanova Sh., Bekmuxamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika (o‘quv qo‘llanma). Toshkent, “Universitet”, 2014, 75-bet.
(10). Тимофеев В.П. Диалектный словарь личности. Учен. зап. Шадринского пед. ин-та. Шадринск, 1971, № 162, с. 141.
(11). Ерофеева Т.И. Социолект: стратификационное исследование: монография. Пермь, Перм. гос. ун-т, 2009.
(12). Ван Минь. Гендерный стереотип в языковом сознании носителей китайского языка (при сопоставлении с данными носителей русского языка). Дисс. ... канд. филол. наук, Пермь, 2018, с. 48.
(13). Горошко Е.И. Интегративная модель свободного ассоциативного эксперимента. Харьков, Москва, Ра-Каравелла, 2001, с. 23.
(14). Микляева А.В., Румянцева П.В. Социальная идентичность личности: содержание, структура, механизмы формирования. Глава 1, 2008 [электронный ресурс]. URL: http://humanpsy.ru/miklyaeva/soc_ident_02
(15). Trudgill P. Sex, covert prestige, and linguistic change in the urban British English of Norwich II Language in Society, 1972, p. 179–195.

**Yuldashev Jo‘rabek Uralovich (NavDU dotsenti v.b.)**

## KARMANA TUMANI OYKONIMLARINING GRAMMATIK-STRUKTUR XUSUSIYATLARI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada o‘zbek toponimikasida joy nomlarining grammatik–struktur xususiyatlari yuzasidan izlanish olib borgan toponimist olimlarning fikrlari va ularga munosabat, shuningdek, Quyi Zarafshon geografik hududi toponimikasining bir qismi bo‘lgan Karmana tumani oykonimlarining grammatik-struktur xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *derivatsiya, oykonim, toponim, lisoniy qolip, lingvistik aspekt, lingvistik paradigma, etnotoponim, etnonim, etnooykonim, onomastik birlik, urug‘, qabila, konversiya, sodda oykonim, qo‘shma oykonim, murakkab tarkibli toponim.*

## ГРАММАТИКО-СТРУКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ СИМВОЛИЗМА РАЙОНА КАРМАНА

***Аннотация****. В данной статье рассматриваются мнения и взгляды топонимистов, проводивших исследования грамматических и структурных особенностей топонимов в узбекской топонимии, а также грамматических и структурных особенностей топонимов Карманского района, входящего в топонимию Нижне Зарафшанского географического региона.*

***Ключевые слова:*** *деривация, икононим, топоним, лингвистическая модель, лингвистический аспект, лингвистическая парадигма, этнотопоним, этноним, этноикононим, ономастическая единица, клан, племя, обращение, простой икононим, составной икононим, сложный топоним.*

## GRAMMATICAL-STRUCTURAL FEATURES OF THE SYMBOLISM OF THE KARMANA DISTRICT

***Annotation.*** *This article discusses the opinions and attitudes of toponymic scholars who have conducted research on the grammatical and structural features of place names in Uzbek toponymy, as well as the grammatical and structural features of the place names of the Karmana district, which are part of the toponymy of the Lower Zarafshan geographical region.*

***Keywords:*** *derivation, icononym, toponym, linguistic pattern, linguistic aspect, linguistic paradigm, ethnotoponym, ethnonym, ethnoicononym, onomastic unit, clan, tribe, conversion, simple icononym, compound icononym, complex toponym.*

**Kirish.** Ma’lumki, har qanday joy nomlarida yurtning tarixi, kechmishi, geografiyasining betakror xususiyatlari, shu territoriyada yashagan xalqning o‘tmishdagi kundalik hayoti, orzu-istaklari, qaysi urug‘ yoki qabilaga mansubligi kabi bilimlar o‘z ifodasini topgan bo‘ladi.

Insoniyat paydo bo‘libdiki, o‘zi yashab turgan yoki atrofini qurshagan shaharlar, qishloqlar, ovullar, maydonlar, bog‘lar, qal’alar, qo‘rg‘onlar, karvonsaroy, rabotlar, masjid va madrasalar, ko‘chalar, mahalla-